PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHDA PSIXOLOG KASBIY-ETIKAVIY TAMOYILLARGA AMAL QILISHINING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ СЛЕДОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЭТИЧЕСКИМ ПРИНЦИПАМ ПСИХОЛОГА В ОБЕСПЕЧЕНИИ (ОКАЗАНИИ) ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГ

THE IMPORTANCE OF FOLLOWING THE PROFESSIONAL AND ETHICAL PRINCIPLES OF THE PSYCHOLOGIST IN THE PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES

Nilufar RASULOVA,
INTERNATIONAL ACADEMY OF UZBEKISTAN, teacher of the Department Psychology of religion and pedagogy n.rasulova@iiau.uz
11 A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

Dildorakhon ULMASOVA
d.ulmasova@iiau.uz

DOI: 10.47980/TLOI/2020/3/21

Аннотация: Bugungi kunda insonlarning psixolog hamda psixoterapevtga murojaati yana ham ommalashmoqda. Odamlar har kuni stressga tushiradigan, o'zi hal qilishi qiyin bo'lgan turli muammolar bilan to'qnash kelmoqdalar. Inson har doim ham o'zini qiynayotgan muammolarni yaqin insonlariga ayta olmagani bois psixologik xizmatga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham bugun yurtimizda ham psixologik xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirish hamda uning samaradorligini oshirishha alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Yoshlar ittifoqi muassisligda ham psixologik xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etildi. Vaziralar Mahkamasining 472-son 07.06.2019-yildagi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida psixologik xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra Respublikada bosqichma-bosqich reja asosida aholiga psixologik xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Uzluksiz ta'lim tizimida psixologik xizmatlarning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash uchun "Psixologik xizmat" konsepsiyasini yaratish, bolalar, kattalar ruhiyatidagi o'zgarishlarni tezda aniqlash, bunga olib kelgan sabablarni bartaraf etishga ko'maklashish maqsadida psixolog mutaxassislarini tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari huzurida "Psixologik xizmat ko'rsatish labaratoriyalari"ni tashkil etish hamda ular uchun o'quv va metodik adabiyotlar yaratilishini tashkil etish kabi chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Maqolada psixologik xizmat ko'rsatishning sifatli hamda samarali bo'lishi bevosita psixolog faoliyatiga bog'liqligi

tadqiq etilgan. Psixolog faoliyatining samaradorligi uning shaxsiy sifalari, kasbiy malakasi hamda etikaviy tamoyillarga qanchalik amal qilgani bilan o'lchanadi. Etika masalasi psixologiyaning terapiya va tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lgan sohasida muhimdir. Patsientlar bilan ishlash va psixologik tadqiqotlar o'tkazish turli xil axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Amerika psixologlar assotsiatsiyasining etikaviy kodeksi psixologiya sohasida ishlaydigan mutaxassislar ish jarayonida axloqiy dilemmalarga duch kelganda nima qilish kerakligi haqida yaxshiroq ma'lumotga ega bo'lishlari uchun ko'rsatmalar beradi. Etikaviy tamoyillar psixologlar duch keladigan ko'pgina holatlar va umumiy qoidalarni qamrab olish orqali ularni turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishini ta'minlashga mo'ljallangan. Eng yuqori xulq-atvor standartlariga intilish har bir psixologning shaxsiy burchidir. Shuning uchun ham ushbu maqolada Amerika psixologlar assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan 5 asosiy punktdan iborat psixologning etikaviy tamoyillari tizimli tahlil etiladi. Bundan tashqari turli olimlar ilmiy izlanishlari asosida psixologik maslahat jarayonida psixolog ega bo'lishi lozim bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda kasbiy malakalar bayon etiladi.

Tayanch iboralar*: psixologik xizmat, psixolog, patsient, psixologik muammo, psixologik maslahat, supervizor, psixoterapiya, psixoterapevt, etikaviy tamoyillar.*

Аннотация: Сегодня люди обращаются к психологам и психотерапевтам. Каждый день люди сталкиваются с множеством стрессовых, трудно решаемых проблем. Люди чувствуют потребность в психологических услугах, потому что они не всегда могут рассказать своим близким о проблемах, которые их беспокоят. Именно поэтому сегодня в нашей стране особое внимание уделяется расширению психологических служб и повышению их эффективности. В частности, в Союзе молодежи созданы центры психологической службы. В соответствии с Постановлением Кабинета Министров № 472 от 07.06.2019 г. разработан план действий по дальнейшему совершенствованию психологических служб в Республике Узбекистан. В соответствии с ним, на основе поэтапного плана республика проведет масштабную работу по повышению качества психологических услуг населению. Были разработаны такие меры, как создание концепции «Психологическая служба» в целях обеспечения преемственности психологических услуг в системе непрерывного образования, выявления изменения в менталитете детей и взрослых, оказаания помощи в устранении причин этого в вузах, готовящих кадры психологов, а также создание «лабораторий психологической службы» и учебно-методической литературы для них.

Качество и эффективность психологических услуг зависит от работы психологов. Эффективность работы психолога измеряется его личными качествами, профессиональной квалификацией и соблюдением этических принципов. Вопрос этики важен в области психологии, связанной с терапией и исследованиями. Работа с пациентами и проведение психологических исследований может привести к различным этическим проблемам. Кодекс этики Американской ассоциации психологов содержит рекомендации для специалистов, работающих в области психологии, для лучшего понимания того, что делать, когда они сталкиваются с этическими дилеммами в процессе работы. Этические принципы призваны гарантировать, что психологи принимают правильные решения в различных ситуациях, освещая множество ситуаций и общие правила, с которыми они сталкиваются. Стремление к самым высоким стандартам поведения является личной обязанностью каждого психолога. Поэтому в данной статье приводится систематический анализ этических принципов психолога, состоящий из 5 основных пунктов, разработанных Американской ассоциацией психологов. В статье также описываются личные качества и профессиональные навыки, которыми должен обладать психолог в процессе психологического консультирования на основе исследований различных ученых.

Ключевые слова: *психологическая служба, психолог, пациент, психологическая проблема, психологическое консультирование, супервизор, психотерапия, психотерапевт, этические принципы.*

Abstract: Today people turn to psychologists and psychotherapists. Every day, people are faced with many stressful, difficult to solve problems. People feel the need for psychological services because they are not always able to tell their loved ones about the problems that bother them. That is why today in our country special attention is paid to expanding psychological services and increasing their efficiency. In particular, psychological service centers have been created in the Youth Union. By the Resolution of the Cabinet of Ministers No. 472 dated 06/07/2019, an action plan was developed for the further improvement of psychological services in the Republic of Uzbekistan. Following it, based on a phased plan, the republic will carry out large-scale work to improve the quality of psychological services to the population. Such measures were developed as the creation of the concept of "Psychological service" to ensure the continuity of psychological services in the system of continuing education, to identify changes in the mentality of children and adults, to assist in eliminating the reasons for this in universities that train psychologists, as well as the creation of "psychological laboratories. service "and educational literature for them.

The quality and effectiveness of psychological services depend on the work of psychologists. The effectiveness of a psychologist is measured by his personal qualities, professional qualifications, and adherence to ethical principles. The issue of ethics is important in the field of psychology related to therapy and research. Working with patients and conducting psychological research can lead to various ethical problems. The American Psychological Association's Code of Ethics guides professionals working in the field of psychology to better understand what to do when faced with ethical dilemmas in the process. Ethical principles are designed to ensure that psychologists make the right decisions in a variety of situations by covering the many situations and general rules they face. Striving

for the highest standards of behavior is the personal responsibility of every psychologist. Therefore, this article provides a systematic analysis of the ethical principles of the psychologist, consisting of 5 main points developed by the American Psychological Association. The article also describes the personal qualities and professional skills that a psychologist should have in the process of psychological counseling based on research by various scientists.

Key words: *psychological service, psychologist, patient, psychological problem, psychological counseling, supervisor, psychotherapy, psychotherapist, ethical principles.*

KIRISH

Bugungi global zamonda shaxsni qiynayotgan psixologik muammolarni aniqlash, ularni yechishga ko'mak berish juda dolzarbdir. Chunki bu orqali insonning emotsional jihatdan farovonligi ta'minlanibgina qolmay, unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixosomatik kasalliklarning ham oldi olinadi. Shuning uchun ham butun jahondagi kabi bizning Respublikada ham aholiga psixologik xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, psixologiya fanining amaliy tarmoqlarini yana-da rivojlantirish, shu soha bo'yicha yetarli bilim malakaga ega kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan shuning uchun so'nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi. 2017-yildan boshlab profilaktika inspektorlari va jamoatchilik vakillarining ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash tizimi yo'lga qo'yilib, 5 696 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasida profilaktika inspektorlari, 5 328 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasida esa mahalla vakillarining xonalari tashkil etildi. Insonlarga psixologik yordam ko'rsatish ildizi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu yumushlarni qadimda aynan psixologlar bo'lmasa-da, kohinlar, diniy arboblarlar, faylasuflar bajargan. Diniy ulamolar odamlarga ruhiy jihatdam ko'mak berishda maxsus psixologik metodlardan foydalanmagan bo'lsa-da, uning elementlarini o'z faoliyatlarida aks ettirishgan. Ya'ni insonlarni qiynayotgan muammolarini eshitganlar, taskin berganlar. Psixologik xizmatning aynan mutaxassislar, xususan, psixologlar tomonidan amalga oshirilishni boshlanish XIX asrning boshlariga to'g'ri keladi.

METODLAR

Biz nazariy tadqiqotimizda ikkita metoddan foydalandik. Birinchisi, nazariy tahlil; ikkinchisi, kontent analiz metodidir.

MUHOKAMA

Psixologik xizmat AQShda 1800-yillardan boshlab rivojlana boshladi. AQShning birinchi amaliyotchi psixologlari o'z-o'zini tarbiyalash muammosini o'rgangan eksperimental psixologlar edilar.

Fransiyada psixologik xizmatni Alfred Bine joriy etdi va bu borada e'tibor asosan ta'lim sohasiga e'tibor qaratildi. 1894-yildan boshlab psixologik xizmatni mamlakatda amalga oshirish zarurligi tasdiqlandi va 1905-yilda umumiy dastur bo'yicha o'qiy olmaydigan bolalarni tekshirish orqali aqliy taraqqiyotda orqada qolgan o'quvchilarni ajratadigan Bine-Simon testi yaratildi.

1970-yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etdi. 1990-yilda Fransiyada psixologik xizmatning yo'nalishlari bo'yicha asosiy vazifalar aniqlab berildi. Psixologik xizmatni olib boruvchi shaxs vakolati kengaytirildi hamda psixolog shaxsning har tamonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qilishi kerak, bunda u bu ishlarga o'qituvchilarni va ota-onalarni ham jalb etishi mumkin va xatto lozim topsa, maktab va oila tarbiyasiga qarshi chiqishi mumkin, deb maxsus ta'kidlandi.

Sobiq sovet Ittifoqida birinchi bo'lib Estoniyada 1975-yilda maktabda psixologik xizmat tashkil etildi (rahbari X.I. X.Liymets, Yu.L. Serd bo'lib, ular tarbiyasi qiyin o'smirlar uchun maxsus maktablarda ish olib boradilar). Rossiyada 1982-yilda maktablarda psixolog shtati ochildi.

1989-yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sababli Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi.

Bugungi kunga kelib, psixologik xizmatni 3 nuqtai nazardan qarab chiqish mumkin:

– ilmiy nuqtai nazardan;
– tashviqot nuqtai nazardan;
– amaliy nuqtai nazardan.

Faqat mana shu nuqtai nazarlarning birligigina psixologik xizmat predmetini tashkil etadi.

Ilmiy nuqtai nazar psixologik xizmatning metodologik muammolarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu yo'nalish ijrochilarining asosiy funksiyasi psixologik xizmat ishida psixodiagnostik, psixokorrektsion va rivojlantiruvchi metodlarni ishlab chiqish va nazariy asoslashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishdan iborat.

Tashviqot nuqtai nazari odamlarning psixologik bilimlardan foydalanishini nazarda tutadi.

Psixologik xizmatning amaliy nuqtai nazarini psixologlarning amalga oshiradigan ishlari tashkil etadi.

Hozirgi bosqichda psixologik xizmat faoliyatining 2 yo'nalishi: dolzarb va kelajak yo'nalishlari mavjud. Dolzarb yo'nalish insonlar hayotidagi qiyinchiliklar, ular hulq-atvori, muloqotidagi og'ishlar, muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Kelajak yo'nalishi esa har bir insonning individuallgini rivojlantirishga, jamiyatda yaratuvchanlik

hayotiga psixologik tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan. Ikki yo'nalish ham bir-biri bilan bog'liq.

Psixologik xizmatning maqsadi - shaxsning har tomonlama shakllanishi, rivojlanishi, samarali ijtimoiylashuvi va moslashuvi, rivojlanishining barcha yosh davrlarida psixologik salomatligini muxofaza qilish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoit yaratishdan iborat.

Psixologik xizmatning vazifalari:

– har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlariga muvofiq rivojlanishida uning psixologik imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish;

– shaxsning intelektual, shaxsiy, ijtimoiy rivojlanishidagi og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash, tuzatish va oldini olish;

– odamlarning shaxsiy qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, salomatligini inobatga olgan holda psixologik yordam ko'rsatish;

– oilalarda sog'lom psixologik iqlimni saqlash, kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning eng maqbul yechimlarini topish;

– shaxsning oilada va jamiyatda moslashuvi, ijtimoiylashuvi muammolari bo'yicha ota-onalar yoki qonuniy vakillarning samarali hamkorligini ta'minlash;

– shaxsni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ximoya qilish;

– joylarda sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirish maksadida psixologik kuzatish va qo'llab-quvvatlash.

Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari:

1. Psixodiagnostika.
2. Psixologik targ'ibot va tashviqot.
3. Psixoprofilaktika.
4. Psixik rivojlantirish va psixokorreksiya.
5. Psixologik maslahat.
6. Kasb - hunarga yo'naltirish.

Psixologik xizmat ichida psixologik maslahat yetakchi o'rin egallaydi. (Lowman R., 2016:4) Psixologik maslahatning asosiy maqsadi – psixologik yordamni ko'rsatish, ya'ni psixologning kishi bilan suhbati mijoz muammolarini hal qilishi va shaxslararo munosabatlarini bir maromga solishi lozim. Psixologik maslahat (maslahat) – bunda shaxsga shaxsiy, kasbiy va hayotiy muammolarini hal etishga yordam beriladi, ularni o'z psixologik salomatliligini muhofaza qilishga o'rgatiladi. Psixologik maslahat individual, guruhiy tarzda o'tkaziladi, profilaktik va korreksion xarakterga ega bo'ladi. Psixologik maslahat asosan shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq turli ko'rinishdagi psixologik muammolarga ega insonlar qiyinchiligini bartaraf etishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, bunda ta'sir ko'rsatishning asosiy usuli sifatida ma'lum shaklda tashkil etilgan suhbat tanlanadi. (Nishonova Z., Asomiddinova Sh. 2010:56) Mijoz o'z shaxsiy muammolariga daxldormi, shaxslararo munosabatlariga oidmi, qanday masala bilan psixologga murojaat qilishidan qat'i nazar uning murojaatida ko'mak so'rash, muayyan holat, vaziyatlardan shikoyat qilish ohanglari namoyon bo'ladi. Psixolog-konsulьtantning mijozlari odatda o'zlarining muammolari yuzaga kelishida boshqalar aybdorligini ta'kidlasha-di; chuqur psixokorreksion muolajaga muhtoj mijozlarda esa shikoyat boshqacha tarzda ifodalanadi: ularni ko'pincha o'zlarining ichki holatlari, xohish va istaklarini idora qila olmaslik, boshqarolmaslik qiynaydi.

Bu jarayonda psixolog quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim: Shaxsda sodir bo'luvchi har xil nizolarning psixologik ildizini o'rganish, shaxslararo munosabatlarning asl mohiyatini namoyon qilish, ularni keltirib chiqaruvchi motivlarni tahlil qilish, favqulotdagi vaziyatlarni yengillashtirish va ularni tamoman bartaraf qilish yo'llari yuzasidan maslahatlar berish.

Kasb-hunarga yo'naltirish - o'quvchilarni layoqati, qiziqishi va qobiliyatlariga mos kasb-hunarlarni ongli tanlashga tayyorlashdan iborat tadbirlar majmuasidir. Mazkur yo'nalishlarning uzviy va uzluksiz bog'liqligi psixologik xizmat mazmunining yaxlitliligini ta'minlaydi. Biroq bu yordam qanday shaklda, qay ko'rinishda amalga oshirilishi xususidagi savolga javob berish uchun psixolog konsultant faoliyati jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan tamoyillarni yaxshi o'zlashtirgan hamda amaliyotda qo'llay olishi muhimdir.

Psixologik maslahat muvaffaqiyati ko'pincha psixolog mijozni qanday eshitganligi va uning o'z hamda ayni paytdagi holati to'g'risidagi tasavvurlarini qay darajada o'zgartirganligiga bog'liq bo'ladi. Kuzatishlarimizga qaraganda, psixolog mutaxassisga yordam uchun murojaat qilayotgan ko'pchilik insonlarning asosiy muammosi shundaki, ular biror kishi bilan o'zlarini qiynayotgan muammolar borasida ochiqdan-ochiq gaplasha olmaydilar. Shuning uchun psixolog konsultantning uni diqqat bilan eshitishi va tushunishga tayyorligining o'ziyoq kishi uchun katta ahamiyatga ega hamda bu muayyan ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Maslahat jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir muhim holat bor. Bu mijozning unda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishidir. Maslahat jarayonida mijozning shikoyatlari asta-sekin boshqalardan o'ziga qaratilishiga erishish kerak. Buni amalga oshirmasdan turib, boshqa biror muhim natijani o'ylamasa ham bo'ladi. Inson atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarda o'z ishtiroki va aybini his qilgan holdagina vaziyatni o'zgartirishga harakat qilishi mumkin, aks holda u ko'makni boshqalardan,

chetdan kutib qolaveradi. Shikoyat mazmuni va insonning xatti-harakatlari u bilan olib boriladigan faoliyat yo'nalishi, shaklini belgilashga asos bo'ladi. Maslahatchi-psixologning asosiy vazifasi mijozni o'z muammolari, shaxslararo munosabatlari va hayotiy qiyinchilik-lariga turli nuqtai nazardan qarashga o'rgatishdir. Bunda ko'pincha mijoz muammolarining aosiy sababchisi o'zi ekanligini anglamaydi va shuning uchun xulq-atvori, xatti-harakatlarini maqsadga muvofiq nazorat qilolmaydi. Insonga bunday hollarda ta'sir ko'rsatish asosiy shakli mijozning boshqa kishilarga va ular bilan muomala-munosabatiga nisbatan shakllangan ustanovka, anglangan va anglanmagan yo'l-yo'riqlari, stereotiplarini o'zgartirish tarzida ifodalangani ma'qul. Suhbat davomida mijoz vaziyat, muammolarini keng qamrovda baholash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim, aks holda uning o'zini qiynayotgan masalalar bo'yicha adekvat qaror qabul qila olishi qiyin bo'ladi. Psixologik maslahat o'tkazish murakkab jarayon bo'lib, psixolog konsultantga katta mas'uliyat yuklaydi. Shu bois ham konsultativ psixologiyada ko'plab olimlar psixolog konsultant shaxsiga qo'yiladigan asosiy talablarni tadqiq qilishga intilishgan. Quyida ular orasida bir nechtasi ko'rib chiqamiz:

Foster va Guy konsultant shaxsiga qo'yiladigan talablarni quyidagilarga ajratadi:

a) Bilimga chanqoqlik, harakatchanlik;

Ushbu sifatlarga ega bo'lgan odamlar boshqa insonlarga samimiy qiziqa oladi.

b) eshita olish qobiliyati;

c) muloqatga kirishishda yengillik fikr almashishda qoniqish hissi his qildira olish;

d) empatiya va tushunish psixolog patsient o'rniga hatto boshqa jinsdagi bo'lsa ham o'zini qo'ya olishi;

e) introspeksiya har bir konsultant o'zining ichki holatini his qila olishi

f) fidoyilik kerakli vaqtda patsient boshqa insonni eshita olish hamda uning muammolarini hal qila olish

g) emotsionallik

h) iliq munosabat o'rnata olishkonsultant uchun patsient bilan emotsional yaqinlik munosabatini o'rnata olish muhimdir.

i) Boshqarishidagi komfortlik consultant boshqalarning mustaqilligini sqlagan holda konsultatsiya jarayonini boshqarib turishi muhim.

j) Hazil-mutoyiba hissi. Hayotda sodir bo'lgan ba'zi bir voqealarni kulgili tomonini ko'rsata olish ham psixolog konsultantning malaka talablariga kiradi (Kochyunas R. 1999:125).

Bundan tashqari Pattersen va Velfel (1994-y) psixolog konsultant faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishida unda quyidagi sifatlar: stressga chidamlilik, maqsadga inltiluvchanlik bo'lishi lozimligini ta'kidlagan.

Kormier (1998-yil) muvaffaqiyatli konsultantda quyidagi shaxsiy sifatlar borligni bildiradi.

1. Intelektual (aqliy kompetentlik) ya'ni o'rganishga bo'lgan xohish va o'z ustida ishlash layoqati
2. G'ayratlilik
3. Moslashuvchanlik (konsultatsiya jarayonida patsientning to'satdan berilgan savollariga javob bera olish layoqati)
4. Jonbozlik ko'rsata olish layoqati ya'ni konsultantning patsient qaror qabul turtki bo'la olishi kerakli yordam va o'ziga bo'lgan ishonchni bera olishi
5. Irodalilik
6. O'ziga bo'lgan ishonch. (Kochyunas R. 1999:125)

Psixologik konsultatsiya muvaffaqiyatli o'tishi psixologning kasbiy hamda xarakter xususiyatlariga bevosita bog'liq. Psixolog konsultant qanday ijobiy hislatlarga ega bo'lishi lozim degan savolga ko'plab psixolog tadqiqotchilar javob topishga intilgan. Xususan, H.Strap yaxshi konsultant sifatlarini patsientlar fikrini o'rgangan holda e'tiborlilik, eshita olishlik, mehribonlik hamda do'stona maslahat bera olish layoqatiga egalik deya belgilaydi. (Kochyunas R. 1999:280)

J.Bugental esa psixolog konsultant va psixoterapevt quyidagi 3 layoqatga ega bo'lishi lozim deya ta'kidlaydi: ular quyidagilar:

– hozirgi vaqtni to'la anglaganlik;

– ayni vaqtda hayotiy tanloviga egalik;

– o'z tanlovlariga javobgarlik hissini mavjudligidir. [1] Haqiqatan ham psixolog o'z boshqalarga maslahat bera oladigan, empatiya hissiga ega bo'lishi uchun ham u, avvalo, xotirjam, mustaqil, o'z hayotini bir maromga solib olgan bo'lishi darkor.

A.Stor ideal konsultant ochiq, turli odamlar bilan til topisha oladigan, o'zini ko'rsatishga intilmaydigan, o'z fikriga ega va uni himoya qila oladigan, patsientga ruhiy jihatdan ko'mak bera oladigan bo'lish kerak degan fikrni ilgari suradi. (Kochyunas R. 1999:126)

Psixolog konsultant qanday bo'lishi sifatlarga ega bo'lishi lozimligi haqidagi turli tadqiqotchilar fikr hamda qarashlarini AQSh psixolog-konsultantlarni tayyorlash uyushmasi birlashtirib, quyidagi 6 asosiy sifatni ajratdi:

– Odamlarga bo'lgan ishonch;

– Boshqalar qadriyatlatini hurmat qilish;

– Uzoqni ko'ra biluvchi;

– Xurofot fikrlarga ega emaslik;

– O'zini tushuna olish;

– Kasbiga mas'uliyat bilan yondashish; (Kochyunas R. 1999:126)

K.Schneider malakali psixolog konsultant shaxsiy hamda ijtimoiy yetuklik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak deya hisoblaydi. (Rodjers K. 2000:280) Shaxsiy va ijtimoiy yetuklikni esa o'z muammolarini mustaqil hal

qila olish, xatolarini tan olib to'g'irlay olish, sabrlilik, turli xil xarakterdagi insonlar bilan samimiy muloqotga kirisha olish hamda ularga ko'mak berish layoqatini tushunadi.

N.V.Somokina psixolog konsultant faoliyatida uchrashi mumkin tipik xatolarga quyidagilarni kiritadi:

1. Konsultatsiya jarayonida psixolog konsultant o'zini ko'rsatishga intilishi.

2. Haddan ortiq tabiiylik yoki sun'iylikka yo'l qo'ymasligi.

3. Psixologning foydali maslahatlar berishga intilishi.

4. Psixologik konsultatsiya psixologning monologiga aylanib qolmasligi.

5. Psixolog shaxsiy qiyinchiliklarini mijozga ko'chirishi.

6. psixolog tomonidan patsientni baholanishi.

7. psixolog mijozning muammolarini o'z shaxsiy qiyinchilikari sifatida kechirishi.

8. juda uzoq davom etgan konsultatsiya

9. Psixolog mijoz tomonidan manipulyatsiya obyektiga aylanib qolishi.

Psixolog konsultant shaxsiga qo'yiladigan talablar turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lsada, barchasini birlashtiradigan umumiylikni guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu sifatlar qatoriga malakaviy kompetentlik, o'ziga bo'lgan ishonch, irodalalilikni kiritish mumkin. O'z ishini yaxshi olib boruvchi psixolog konsultant esa psixologik maslahat jarayonining muvaffaqiyati garovidir. Ushbu amalni qo'llash natijasida mijoz uning muammosi bilan bog'Iiq xulosalar va faktlarni aniqroq va to'laroq eslay boshlaydi. O'zi va uni diqqat bilan tinglayotgan psixolog-maslahatchi uchun avv al ongida yashirin bo'lgan holatlarni ochadi. Fikrliashni faollashtirish amaliga tinglab tasdiqlash, mijoz aytgan gaplar to'g'risida ma'lum, ko'pincha ijobiy munosabatni bildirish uslublari, mijozda aytgan gaplarini to'g'ri ifoda etishda qiyinchiliklar yuzaga kelganida unga amaliy yordam ko'rsatish kabi usullar kiritilishi mumkin. Bunga mijozning o'zini dovdiratib qo'yadigan nutqidagi tutilishlarni psixolog-maslahatchi to'ldirishi, uning*gaplari birtekis va bog'liqligini ta'minlashi hamda psixologik to'siqlarni yo'qotishi, mijozga esa bundan keyin nimalar to'g'risida gapirishini eslashga yo'naltiruvchi, mijozning xotirasi va fikrini rag'batlantiruvchi savollarni kiritishi mumkin. Qo'llab-quwatlab turish amali mijozni tinglab turib psixolog-maslahatchi vaqti-vaqti bilan ko'pincha mijozning o'zi maslahatchi tomonidan uni gaplarini ma'qullashini istab turgan paytlarda - so'zlar, ishoralar, mimikasi, pantomimika va boshqa mumkin bo'lgan ekstra hamda paralingvistik vositalar bilan mijoz aytgan gaplarni ma'qullab, uni qo'llab turishdan iborat. Psixolog-maslahatchining mijoz fikrini oydinlashtirib turishi, uning gaplarini tinglayotganda va fikri unchalik tushunarli yoki aniq ifoda etilmaganda vaqti-vaqti bilan suhbatlashib, ovozini chiqarib mijoz fikrini o'zi uchun aniqlashtirib yoki unga fikrini aniqroq ifoda etishga yordam berib turishdan iborat bo'ladi.

Ko'pchilik kasblarning mutaxassislar albatta rioya etishlari shart bo'lgan tamoyil va shartlari mavjud. Misol uchun ko'pchilik mamlakatlarda professional mutaxassislar faoliyatini belgilash maqsadida psixologning axloqiy kodeksi (Ethical Principles of Psychologists, 1981) amal qilib kelmoqda. Kishilarga psixologik ta'sir ko'rsatish sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislar uchun bu talablar yanada jiddiy bo'lib, mazkur me'yorlar amaliyotchi psixologlar zimmasiga anchagina mas'uliyat yuklaydi (Specialty Guidelines for the Delivery of Services by Counseling Psychologists, 1981). Psixologik amaliyot mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ma'naviy va axloqiy muammolar, savollarga doim bir xil qolipda javob berishning imkoni yo'q. Psixologik maslahat va psixoterapiyaning axloqiy tamoyillari to'g'risida ko'p va xo'b yozilgan, tom-tom kitoblar nashr qilingan bo'lib, ularda muayyan vaziyatlarda mutaxassis, psixolog o'zini qanday tutishi lozimligi borasida aniq tavsiyalar keltirilgan. Kasbiy tamoyillar va talablarga rioya qilmaslik ayrim mamlakatlar (masalan AQSh) da psixologning diplomidan ayrilishi, mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatish, psixologik amaliyot bilan shug'ullanish, o'z xizmatlarini taklif qilish huquqlaridan batamom mahrum bo'lishiga olib keladi. Quyida biz ham psixolog faoliyati samaradorligida yetakchi rol o'ynovchi ana shu tamoyillar haqida so'z yuritmoqchimiz. Ilk tamoyil mijozga nisbatan xayrixoh va beg'araz munosabat sanalaladi. Mazkur prinsip mijoz o'zini qabul vaqtida erkin va qulay sezishi uchun mutaxassis amalga oshirishi, namoyon etishi zarur bo'lgan kasbiy, professional xulq-atvor xususida so'z bormoqda. Mijozga xayrixoh munosabatda bo'lish umumqabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya qilishnigina emas, balki diqqat bilan eshita olish, zaruriy psixologik yordam ko'rsatishni ham nazarda tutadi.(Velskaya Ye., 1998:13) Shu bilan birga psixolog maslahat, yordam so'rab kelgan kishini muhokama qilish emas, tushunish, unga ko'maklashishga harakat qilishi lozim.

Keyingi etikaviy tamoyilga o'tadigan bo'lsak, bu mijoz qadriyatlari va me'yorlarini hisobga olishdir. Ushbu tamoyil psixologning jamiyat tomonidan qabul qilingan emas, balki mijoz tomonidan o'zlashtirilgan xulq-atvor me'yorlari, ideallariga, dunyoqarashi, qadriyatlariga e'tibor qaratishi zarurligini bildiradi. Samarali psixologik ta'sir mutaxassisning mijoz qadriyatlarini hisobga olgan, tushungan vaziyatdagina amalga oshirilishi mumkin; ularga nisbatan tanqidiy munosabat qabulga kelgan kishining o'zini o'ng'aysiz sezishiga, "qobig'i"dan chiqmasligi, ochiq va samimiy

bo'lmasligiga, shu tariqa psixologik maslahat jarayoni natijasining barbod etilishiga sabab bo'ladi. Qayd etish kerakki, mijoz qadriyatlari kishining risoladagi shaxs sifatida faoliyat yuritishiga xalal berayotgan paytdagina psixolog ularga alohida e'tibor qaratishi va hurmat bilan munosabatda bo'lgan holda mijozga ta'sir o'tkazishda foydalanishi mumkin.

Psixolog faoliyatining butun mohiyatini ochib beruvchi tamoyil maslahat bermaslik tamoyili bo'lib, uni quyidagicha izohlash mumkin. Mijozlarga (garchi jarayon ko'pincha psixologik maslahat, maslahat deb atalsa-da) maslahat berish tavsiya etilmaydi. Bunga asos va sabablarni doimo yetarlicha topish mumkin. Eng avvalo, psixologning yoshi va hayotiy tajribasi qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar, birovlarga natijasi kafolatlangan maslahat berishning iloji yo'q: har bir insonning hayoti o'ziga xos va uni oldindan bilib bo'lmaydi. Boz ustiga, maslahat berayotib, psixolog barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan bo'lib chiqadi, bu esa mijozning shaxs sifatidagi rivoji va atrofdagi hamda bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalarga nisbatan adekvat munosabatda bo'lishiga to'sqinlik qiladi (Osipova A., 2000:4). Mazkur vaziyatda psixolog o'zini rahnamo sifatida tutadi, bu mijozning o'z hayotini tahlil qilish va uni o'zgartirishga intilishidan ko'ra, voqea-hodisalarga sust va yuzaki munosabatda bo'lishiga olib keladi.(Byudjental Dj. 2001:11) Shu bilan birga maslahatga amal qilingandagi har qanday muvaffaqiyatsizlik odatda psixolog chekiga yoziladi, natijada bu mijozning sodir bo'layotgan voqealardagi o'z rolini tushunmasligiga olib keladi.

Maxfiylik, anonimlik tamoyili psixolog ish faoliyati ko'ngildagidek o'tishiga xizmat qilibgina qolmay, patsientning huquqlarini ham himoya qiladi.

Psixologik maslahat jarayonining asosiy shartlaridan biri maxfiylik, anonimlikdir. (APA Ethical principles of Psychologists. 2016:8) Bu mijoz tomonidan berilgan har qanday ma'lumot, axborot uning roziligisiz biror davlat, jamoat tashkiloti, jismoniy shaxs, shu jumladan, qarindoshlar yoki do'stlarga berilmasligini anglatadi. Ayrim mamlakatlarda bu qoidaga kiritiladigan va doimo avvaldan mijoz ogohlantiriladigan bir istisno mavjud. Misol uchun psixolog qabul jarayonida mijozning biror kishi yoki jamiyat hayotiga jiddiy xavf tug'diradigan xatti-harakatni amalga oshirishni maqsad qilganidan xabar topishi mumkin. Biroq shunday hollarda ham o'ta ehtiyotkorlik va mijoz manfaatlarini hisobga olgan holda harakat qilish tavsiya etiladi. Ba'zida mijoz o'zi va o'z muammosi to'g'risida aytib berganlari psixolog-maslahatchi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Ba'zan mijozning muammosi mohiyati va yechimiga nisbatan to'g'ri xulosa chiqarish va asosli tavsiyalarni ifoda etish uchun psixolog-maslahatchiga qo'shimcha ma'lumotlar kerak bo'ladi. Bunday hollarda o'z fikr va xulosalarini ifoda etishdan avval psixolog-maslahatchi mijoz bilan yoki mijozda yuzaga kelgan muammoga aloqasi bo'lgan boshqa, ya'ni maslahat uchun foydali ma'lumot bera oladigan shaxslar bilan qo'shimcha suhbatlar o'tkazadi. Maslahatchi mijozning muammosi to'g'risida boshqa shaxslar bilan suhbatlashmoqchi ekanligi to'g'risida oldindan unga aytishi va undan ruxsat so'rashi kerak. Ba'zida mijozning muammosi bo'yicha qaror qabul qilishi uchun psixolog-maslahatchiga qator psixologik testlar yordamida mijozni qo'shimcha o'rganishi kerak bo'ladi. Bunday holatda u mijozga psixologik test nimalardan iborat bo'lishi, qancha vaqt kerak bo'lishi, qanday o'tkazilishi va qanday natijalar berishi mumkinligini tushuntirib, shunday tekshirish o'tkazish zarurligini aytish kerak. Psixologik tekshirish natijalari qayerda va kim tomonidan yoki qanday foydalanishi mumkinligi to'g'risida oldindan aytish ham muhim hisoblanadi. Agarda mijoz psixologik testlar o'tkazishga rozilik bermasa, psixolog-maslahatchi uni majburlashi kerak emas. Shu bilan birga agarda, haqiqatan ham shunday bo'lsa, u mijozga psixologik testlardan voz kechishi, muammoni tushunib yetishi va uni hal etish to'g'ri yo'lni topishni qiyinlashtirishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirib qo'yishi kerak. (Nishonova Z., Asomuddinova Sh. 2010:56)

Shaxsiy va kasbiy munosabatlarni farqlash tamoyilini esa quyidagicha tushuntirish mumkin. Amaliyotda tajribali va professional mutaxassislarning mijozlar bilan o'ta do'stona munosabatga o'tib, yoki qarindosh-urug'lari, do'stlariga yordam ko'rsatish maqsadida "tuzoqqa tushib" qolganlariga misollar ko'p. Bu yo'l mutaxassisning bashoratchi emasligi va yaqinlarga beriladigan tavsiyalarning tez qadrsizlanib qolishi bilangina emas, balki quyida aytib o'tiladigan boshqa sabablarga ega ekanligi bilan ham xavflidir.

Psixoterapiyada bemorlar bilan ish olib borishda qo'llanadigan ikki muhim tushuncha mavjud: a) "ko'chirish". Bu mijoz, patsientning turli kishilar bilan bo'lgan munosabati xususiyatlari, asosiy muammo va nizolarini psixoterapevtga ko'chirishga moyilligini anglatadi; b) "aksilko'chirish". Bu esa psixoterapevtning har xil insonlar bilan bo'lgan muomala-munosabati xususiyatlari, ichki muammo va nizolarini mijozda ifodalashga intilishidir. Psixoanalizga Z.Freyd tomonidan kiritilgan mazkur tushunchalar hozirgi kunda psixoterapiyaning turli yo'nalishlarida keng qo'llanmoqda. "Ko'chirish" va "aksilko'chirish" har qanday insoniy, hatto psixoterapiya doirasida mijoz va mutaxassis o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlarning ham ichki shaxsiy ehtiyoj hamda xohishlar natijasida yuzaga kelishini va ko'pincha inson ularni anglamasligini bildiradi. Bundan tashqari, hatto professional, tajribali psixoterapevt ham "aksilko'chirish" qarshisida ba'zan ojiz qoladi. Aynan boshlovchi psixoterapevtlar o'z holatlari hamda shaxsiy va shaxslararo fenomenlarni boshqarish, tushunishlari uchun dastlab muayyan

tajribali mutaxassis (supervizor) nazorati ostida ishlagan bo'lishlari, hissiyotlari tahlili borasida muayyan ko'nikmaga ega bo'lishlari talab etiladi.

Psixologik maslahat jarayonida ham mazkur fenomenlar u yoki bu darajada ishtirok etishi mumkin (Aleshina Yu.,1999:9). Biroq maxsus va chuqur tayyorgarlikdan o'tmagan shaxs (mutaxassis)ning ushbu murakkab hodisalar bilan samarali ish olib borishini, muammolarni to'liq bartaraf etishini kutish qiyin. Mijoz psixolog to'g'risida kam ma'lumotlarga ega ekanligi, psixologni ayblashi, qoralashi yoxud unga qoyil qolishi borasida hozircha biror asosga ega emasligini bilishning o'ziyoq mutaxassisda o'z obro'sini oshirishga ma'lum darajada imkon yaratadi. Psixolog va mijoz o'rtasida yaqin shaxsiy munosabatlar o'rnatilishi ularning yaqin insonlar sifatida bir-birlari muayyan ehtiyoj va xohishlarini qondirishlarini bildiradi, bu esa mijoz muammolarini samarali hal qilish kerak bo'lgan xolisona va ob'ektiv pozitsiyaga putur yetkazadi.

Bir necha o'n yillar oldin xorijda mijoz va mutaxassis psixolog-mutaxassis (psixoterapevt va patsient) o'rtasidagi chuqur shaxsiy, do'stona (shu bilan birga intim) munosabatlarning oqibatlari hamda ularning terapiya, maslahat jarayoni natijasiga ta'siri xususida ancha-muncha munozaralar bo'lib o'tgan edi. Bu borada turli-tuman nuqtai nazarlar bayon qilindi. Umumiy xulosa esa quyidagicha bo'ldi: iloji boricha mutaxassis va mijoz orasidagi munosabatlarning har qanday ko'rinishdagi chuqurlashuvidan qochish kerak, shunday holat yuz bergan taqdirda esa o'ta ehtiyotkorlik bilan, mijoz manfaatini ko'zlagan holda ish tutish va imkon qadar tezroq psixoterapiya yoki psixologik maslahat jarayonini yakunlash lozim (Dahlberg C.C., 1973).

XULOSA

Psixologik xizmatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan psixologik maslahat o'ziga xos mas'uliyatli faoliyat sanaladi. Shunday ekan, psixolog o'ziga yarasha ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi bilan birga axloq kodekslarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi zarurdir. Psixologningning axloqiy tanmoyillarida orasida Amerika Psixologik Assostsiatsiyasining axloq kodekslari yetakchi hisoblamadi. U kirish, mudarija, 5 asosiy tamoyil hamda 10 mormativ standartdan iborat bo'lib, turli xorijiy davlatlararo psixologning etikaviy tamoyillariga mos keluvchi normalar majmuasidir. Psixolog konsultant o'z faoliyati jarayonida ushbu tamoyillarga amal qilishi:

– psixologik maslahat jarayonining samaradorligini ta'minlaydi;

– mijozni qiyanayotgan psixologik muammoni yengishda ko'maklashadi;

– psixologik xizmatdan qoniqish hissini his qilishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 470-sonli Qarori.
2. Абрамова Г.С. Практическая психология: Учебник для студентов вузов. - 6-е изд., перераб. и доп. М.: Академический проект, 2001. S280.
3. Алешина Ю.Е. Семейное и индивидуальное психологическое консультирование. - М.: Ред.-изд. центр Консорциума «Социальное здоровье России», 1993. S9.
4. American Psychological Association. Ethical principles of Psychologists // American Psychologist, 2016. Vol. 45.
5. An Introduction to Consulting Psychology: Working With Individuals, Groups, and Organizations, by R. L. Lowman.(2016). APA. P.24
6. Бьюдженталь Дж. Искусство психотрапевта. СПб.: Питер, 2001.
7. George R. L., Cristiani T. S. (1990) Counseling: Theory and Practice, 3rd Ed. Englewood Cliffs. N. J.: Prentice Hall.
8. Галустова, О.В.(2005). Психологическое консультирование / О.В. Галустова. - М.: 2005. С. 30-41
9. Горностай П.П., Васковская СВ. (1995). Теория и практика психологического консулътирования: Проблемний подход. Киев: Наукова думка. S18.
10. Казлов Н. (2015). Энциклопедия практической психологии. М.: изд. Ексмо. S. 26.
11. Кочюнас, Р. (1999). Основы психологического консультирования / Р. Кочюнас. - М.: Академический проект. S 125.
12. Лысенко, Е.М. (2006) Индивидуальное психологическое консультирование: крат. курс лекций / Е.М. Лысенко, Т.А. Молодиченко. - М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2006. S 41.
13. Мастерство психологического консультирования / под ред. (2006) А.А. Бадхена, А.М. Родиной. – СПб.: Речь. S 14-17.
14. Мей Р. (1999). Искусство психологического консультирования. М.: НФ «Класс». S 21.
15. Mukhamedov N., Turambetov N. (2020) Memorial complex of the Sultan Uwais Baba – one of cult historical centers in Central Asia // ACADEMICIA : An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) Vol. 10 Issue 6, June 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13 http://www.saarj.com
16. Mukhamedov Nematullo (2019) "The role of the Sheikh Zayniddin complex in the spiritual life of Tashkent" // Multidisciplinary scientific journal "Arhivarius" collection of scientific publications. -P.7-14. https://www.researchgate.net/publication/333985613
17. Немов, Р.С. (2003).Основы психологического консультирования / Р.С. Немов. - М.: ВЛАДОС.
18. Nishonova Z., Asomiddinova Sh. Psixologik maslahat. T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti. 2010.
19. Роджерс К. (2000) Консультирование и психотерапия. М.: ЭКСМО-Пресс. S 45.

20. Роджерс К . (2002) Искусство консультирования и терапии. . М.: ЭКСМО-Пресс. S 36.
21. Осипова, А.А. (2000). Общая психокоррекция / А.А. Осипова. – М.: ТЦ «Сфера», 2001.
22. Таланов, В.Л. (2004) Справочник практического психолога / В.Л. Таланов, И.Г. Малкина – Пых. - СПб.: Сова; М.: ЭКСМО.
23. Fuzailova, Gavhar (2020) "EASTERN THINKERS ON THE PEDAGOGICAL MASTERY," The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 19. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/19
24. Qaxxarova, Matlyuba and Absattorov, Baxtiyor Mamarasulovich (2020) "EVOLUTION OF VIEWS ON ETHICS, ETHICAL CRITERIA AND ETHICAL STANDARDS," The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 1 , Article 15. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss1/15
25. Qaxxarova, Matlyuba and Tuychieva, Hamida (2019) "SPIRITUAL-MORAL ENVIRONMENT AND ITS BASIC INDICATORS," The Light of Islam: Vol. 2019: Iss. 4, Article 24. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2019/iss4/24
26. Sultonov, Asliddin (2019) "THE NEW PHILOSOPHICAL PARADIGM OF CULTURAL DEVELOPMENT," The Light of Islam: Vol. 2019 : Iss. 4 , Article 25. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2019/iss4/25
27. Sultonov, A. F. (2018). The processes of development of administrative culture in the executive power of Uzbekistan (Doctoral dissertation, National University of Uzbekistan).

REFERENCES

1. "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 470-sonli Qarori. (07.06.2019)
2. Abramova G.S. (2001) Prakticheskaya psixologiya: Uchebnik dlya studentov vuzov. - 6-e izd., pererab. i dop. Akademicheskiy proekt.
3. Aleshina Yu.E. (1993). Semeynoe i individual'noe psixologicheskoe konsul'tirovanie. –M.: Red.-izd sentr Konsorsiuma "Sotsialnoe zdrovye Rossii". S.9.
4. American Psychological Association. (2016). Ethical principles of Psychologists // American Psychologist, 2016. Vol. 45.
5. R. L. Lowman. (2016). An Introduction to Consulting Psychology: Working With Individuals, Groups, and Organizations. APA. P.4.
6. Byudjental Dj. (2001) Iskusstvo psixoterapevta. SPb.: Piter.
7. George R. L., Cristiani T. S. (1990) Counseling: Theory and Practice, 3rd Ed. Englewood Cliffs. N. J.: Prentice Hall. P12.
8. Galustova, O. (2005) Psixologicheskoe konsultirovanie / O.V.Galustova. –M.: 2005. (In Russ.) S.30-41.
9. Gornostay P.P., Vas'kovskaya SV. (1995) Teoriya i praktika psixologicheskogo konsul'tirovaniya: Problemniy podxod. Kiev: Naukova dumka, 1995.
10. Kazlov N. (2015) Ensiklopediya prakticheskoy psixologii. M.: izd. Eksmo. (In Russ.). S. 26.
11. Kochyunas R. (1999) Osnovi psixologicheskogo konsul'tirovaniya. M.: Akademicheskiy proekt, 1999. S.125
12. Lisenko, Ye.M. (2006) Individualnoe psixologicheskoe konsul'tirovanie: krat. kurs leksiy / Ye.M. Lisenko, T.A. Molodichenko. - M.: VLADOS-PRESS. (In Russ.). S.41.
13. Masterstvo psixologicheskogo konsul'tirovaniya / pod red. A.A. Badxena, A.M. Rodinoy. – SPb.: Rech', 2006.S 14-17.
14. Mey R. (1999) Iskusstvo psixologicheskogo konsultirovaniya. M.: NF «Klass»,1999. S. 21.
15. Mukhamedov N., Turambetov N. (2020) Memorial complex of the Sultan Uwais Baba – one of cult historical centers in Central Asia // ACADEMICIA : An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) Vol. 10 Issue 6, June 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13 http://www.saarj.com
16. Mukhamedov Nematullo (2019) "The role of the Sheikh Zayniddin complex in the spiritual life of Tashkent" // Multidisciplinary scientific journal "Arhivarius" collection of scientific publications. -P.7-14. https://www.researchgate.net/publication/333985613
17. Nemov, R.S. (2000) Psixologicheskoe konsultirovanie: uchebnik / R.S. Nemov. - M.: VLADOS.
18. Nishonova Z., Asomiddinova Sh. (2010) Psixologik maslahat. T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti. 56 b.
19. Rodjers K. (2000) Konsul'tirovanie i psixoterapiya. Noveyshie podxodi v oblasti prakticheskoy raboti. M.: EKSMO-press.
20. Rodjers K. (2002) Iskusstvo konsultirovaniya i terapii. – M.: EKSMO-Press.
21. Osipova A.L. (2000) Obshaya psixokorreksiya: Ucheb. posobie dlya studentov vuzov. M.: Sfera.
22. Talanov, V.L. (2004) Spravochnik prakticheskogo psixologa / V.L. Talanov, I.G. Malkina – Рых. - SPb.: Sova; M.: EKSMO.
23. Fuzailova, Gavhar (2020) "EASTERN THINKERS ON THE PEDAGOGICAL MASTERY," The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 19. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/19
24. Qaxxarova, Matlyuba and Absattorov, Baxtiyor Mamarasulovich (2020) "EVOLUTION OF VIEWS ON ETHICS, ETHICAL CRITERIA AND ETHICAL STANDARDS," The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 1 , Article 15. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss1/15
25. Qaxxarova, Matlyuba and Tuychieva, Hamida (2019) "SPIRITUAL-MORAL ENVIRONMENT AND ITS BASIC INDICATORS," The Light of Islam: Vol. 2019: Iss. 4, Article 24. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2019/iss4/24
26. Sultonov, Asliddin (2019) "THE NEW PHILOSOPHICAL PARADIGM OF CULTURAL DEVELOPMENT," The Light of Islam: Vol. 2019 : Iss. 4 , Article 25. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2019/iss4/25
27. Sultonov, A. F. (2018). The processes of development of administrative culture in the executive power of Uzbekistan (Doctoral dissertation, National University of Uzbekistan).